

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

URAZBAYEVA YULDUZ ABDULLAYEVNA

**KASB – HUNAR MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TA’LIM
MOTIVATSIYASI NAMOYON BO‘LISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Urazbayeva Yulduz Abdullayevna

Kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishning
psixologik xususiyatlari3

Уразбаева Юлдуз Абдуллаевна

Психологические особенности проявления учебной мотивации у учащихся
профессиональной школы.....25

Urazbayeva Yulduz Abdullayevna

Psychological features of the educational motivation exprerssion among
students of a professional school49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

URAZBAYEVA YULDUZ ABDULLAYEVNA

**KASB – HUNAR MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TA’LIM
MOTIVATSIYASI NAMOYON BO‘LISHNING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida H2024.2.PhD/P958 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Sherimbetova Zamira Shalabayevna
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: G'afurov Azizbek Umarjonovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.
Jumayev Nodir Zayniddinovich
psixologiya fanlari bo'yicha (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03.04.10.2024.P.72.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 21 Fevral soat 14.00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

7/581 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. raqam bilan ro'yxatga olingan. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5 Fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 5 Fevral daqiqa 5 - raqamli reyestr bayonnomasi).


A.A. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kasb-hunar ta'limiga bo'lgan talab ortib borayotgan bir sharoitda o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) shaxslarga har tomonlama adolatli va sifatli ta'lim olishini ta'minlash, ta'lim oluvchilarni rag'batlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida yosh mutaxassislar tayyorlashda ta'lim jarayonida motivatsiya muhim o'rin tutadi. Boloniya deklaratsiyasi qoidalarida aks etgan «Dunyoda ta'limi sifati va uning samaradorligini yanada oshirish, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'quv faoliyati natijadorligida individual psixologik xususiyatlarining ahamiyatini aniqlash, shu bilan birga muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun yuqori reytingdagi universitetlarga o'qitish»¹ dasturiga muvofiq o'quv jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlarida va ta'lim muassasalarida kasb-hunar maktabi o'quvchilarining o'quv faoliyatini, individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha empirik tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro OECD va NCES kabi tashkilotlarning ta'lim tizimi kasb-hunar yo'nalishidagi o'quvchilarni rag'batlantirish tizimiga ega, raqobatbardosh va o'z-o'zini tahlil qilish kabi xususiyatlar orqali kasbga yo'naltirish o'zining ijobiy natijasini bermoqda. 2016-yilda OECD tizimiga a'zo mamlakatlarda o'rta maktab o'quvchilarining 44% kasb-hunar yo'nalishlariga jalb qilingan bo'lsa, Avstriya, Finlandiya, Niderlandiya va Sloveniya davlatlarda bu ko'rsatkich 70% ni tashkil qilmoqda. Bu davlatlarda kasb-hunar ta'limi iqtisodiy rivojlanish va yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda². Dunyodagi statistik tahlil natijalaridan kelib chiqib aytilish mumkinki, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning jadal o'zgarishi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarida zamonaviy usullarni amaliyotga qo'llash, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda kasb-hunar ta'limi tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan sohalardan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning ta'lim olish motivatsiyasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida belgilangan 2022-yilda nemis modeli asosida joriy qilingan dual ta'lim tizimi o'quvchilarni amaliy bilimlarini va nazariy tayyorgarligini bir vaqtning o'zida ta'minlash maqsad qilingan. Ushbu tizim orqali o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishining oshishi, ularni mehnat bozoriga tayyorlash jarayonlarini sezilarli darajada oshirgan³. Shu bilan birgalikda, respublikamizdagi 1400 dan ortiq kasb-hunar maktablari o'z o'quvchilariga sifatli ta'lim berish,

¹ <https://eurydice.eacea.ec.europa.eu>.

² OECD Education and Skills Today Site homepage

³ (World Bank)(GIZ).

ularning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim olish motivatsiyasini yanada rivojlantirishga mo'ljallangan dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlarida, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son «O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz psixologlaridan G.A.Abduqahhorova, Z.A.Abdurahmonova, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, A.A.Fayzullayev, V.M.Karimova, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, A.K.Saitova, V.A.Tokareva, E.Z.Usmonova, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalar o'quv faoliyati natijadorligida individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati bo'yicha izlanishlar olib borgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasi masalalari bo'yicha V.G.Aseyev, L.I.Bojovich, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, A.N.Leontyev, V.M.Myasishchev, V.S.Merlin, I.P.Pavlov, S.L.Rubinshteyn, V.I.Selivanov, I.M.Sechenov, K.D.Ushinskiy, A.A.Uxtomskiy, D.N.Uznadze, P.M.Yakobson kabilar tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorij olimlaridan K.Alder, A.Bandura, D.Berlayn, U.Djeyms, E.Daffi, Z.Freyd, K.Levin, G.Ollport, E.Tolmen, K.Xall va boshqalar tomonidan o'quv faoliyatining o'ziga xosligi, o'quv motivlarining ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yoshlarning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy muammolarini o'rganish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 y.y.)

Tadqiqotning maqsadi kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishning psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining rivojlanishini psixologik jihatdan tadqiq qilishga oid psixodiagnostik tekshiruvlarni amalga oshirish va tizimlashtirish;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillarni aniqlashtirish;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish va takomillashtirishga mo'ljallangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishning psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga Xorazm viloyati kasb-hunar maktabining 85 nafar, Buxoro viloyati kasb-hunar maktabining 75 nafar hamda Navoiy viloyati kasb-hunar maktabining 50 nafar, jami, 210 nafar o'quvchilar respondentlar sifatida jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, intervyu, anketa, faoliyat samaradorligini tahlil qilish usullari, shuningdek, «O'quv motivatsiyasini diagnostika qilish» metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakunin tomonidan ishlab chiqilgan va N.S.Badmaeva tomonidan modifikatsiya qilingan), «5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash» metodikasi (M.I.Rojkov, Y.S.Tunnikov tomonidan ishlab chiqilgan va B.S.Alishev, L.A.Volovich va boshqalar tomonidan modifikatsiya qilingan), N.Xollning «Emotsional intellektni o'rganish» testi hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan «Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi darajasini o'rganish so'rovnomasi» (Z.S.Sherimbetova, Y.A.Urazbayeva)dan foydalanildi. Jumladan, tadqiqot jarayonida olingan empirik materiallarni qayta ishlash, ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun matematik statistika usullaridan (K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni) foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining namoyon bo'lishi ta'lim jarayoni shaxsda kommunikativ bilishga, ijtimoiy motivlarni ortishiga, o'zini olib qochish motivlari pasayishiga olib kelishi tufayli o'quv motivlariga bog'liq ekanligi dalillangan;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining rivojlanishi ta'lim jarayonida yangilikka intilish, tanqidiylik, kreativlikka yo'nalganlik o'zini baholashning dinamik shakllanishiga olib kelishiga asoslanib, shaxs ijodiy faolligini namoyon bo'lishiga identiv ekanligi dalillangan;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishda emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish empatiya ichki motivatsiyasini kuchaytirishiga asoslanib, emotsional intellektni oshirishga erishish muhimligi dalillandi;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantiruvchi psixokorreksion model ta'lim jarayonidagi ichki motivlarni sressli vaziyatlarda o'z kechinmalarini nazorat qilish hamda ijtimoiy aloqalarni o'rnatish jihatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishiga asoslanib, motivatsion xususiyatlar, hissiy o'zini

o'zi boshqarish ko'nikmasi va empatiyani o'zaro integral shakllanishiga ta'sir etuvchi usullarni qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishining psixologik so'rovnomasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

kasb-hunar maktab o'quvchilari ta'lim motivatsiyasini oshirish orqali o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni ijobiy darajada o'zlashtirishi aniqlangan;

kasb-hunar maktab o'quvchilari ta'lim motivatsiyasini oshirish psixokorreksion modeli yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi; xalqaro miqyosida tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi; empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi; natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishiga oid ilmiy ma'lumotlar «Kognitiv psixologiya», «Umumiy psixologiya», «Ontogenez psixologiyasi», «Differensial psixologiya», «Psixogigiya», «Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya» fanlaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi, ilmiy tadqiqot natijalarida ta'lim motivatsiyasini psixologik jihatdan tahlil qilinganligi hamda shu muammoga oid ilmiy tasavvurlarni kengaytirishi va ilmiy asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha takomillashtirilgan malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda o'quvchilarining kelgusi o'quv faoliyatiga tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga oid uslublarning yoritib berilgani, o'quv faoliyatini individual-psixologik jihatdan samarali tashkil etish va tadqiqot o'tkazish jarayonida ijobiy xususiyatlarning takomillashtirilgani hamda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishning psixologik xususiyatlarini o'rganishga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari asosida:

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining namoyon bo'lishi ta'lim jarayoni shaxsda kommunikativ, bilishga, ijtimoiy motivlarni ortishiga, o'zini olib qochish motivlarining pasayishiga olib kelganligi tufayli o'quv motivlariga bog'liq ekanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-214-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-214-a son ma'lumotnomasi). Natijada kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi

namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining rivojlanishi ta'lim jarayonida yangilikka intilish, tanqidiylik, kreativlikka yo'nalganlik, o'zini baholashning dinamik shakllanishiga asoslanib, shaxs ijodiy faolligini namoyon bo'lishiga identiv ekanligi dalillanganligiga oid xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-214-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-214-a son ma'lumotnomasi). Natijada kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasining rivojlanishini psixologik jihatdan tadqiq qilishga oid ma'lumotlar tizimlashtirilgan;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishda emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish, empatiya ichki motivatsiyani kuchaytirishiga asoslanib, emotsional intellektni oshirishga erishish muhimligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-214-son buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-214-a son ma'lumotnomasi). Natijada kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishda emotsional intellektning ahamiyati yoritib berilgan;

kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantiruvchi psixokorreksion model ta'lim jarayonidagi ichki motivlarni stressli vaziyatlarda o'z kechinmalarini nazorat qilish hamda ijtimoiy aloqalarni o'rnatish jihatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishiga asoslanib, motivatsion xususiyatlar, hissiy o'zini o'zi boshqarish ko'nikmasi va empatiyani o'zaro integral shakllanishiga ta'sir etuvchi usullarni qo'llash asosida takomillashtirilganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-214-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabr PM-214-a son ma'lumotnomasi). Natijada kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishning psixokorreksion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **«Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishining nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi muammosining nazariy-amaliy asoslariga tayangan holda, o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasining pedagogik va psixologik tamoyillari bilan bog'liq tahlili keltirilgan.

Shu boisdan mazkur bobda kasb-hunar maktab o'quvchilarining ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishining muammosi bo'yicha xorij va mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan, o'quv faoliyati motivatsiyasi fenomeniga mualliflik ta'riflari hamda psixologik mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarga ilmiy izohlar berilgan.

G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan o'quv faoliyati, o'quvchilarni mazkur faoliyatga bo'lgan munosabati, ta'lim motivatsiyasining mazmun va mohiyat jihatidan tushuntirishga bag'ishlangan bir qator nazariyalar ilgari suriladi. Jumladan, Z.Freyd, K.Rodgers, G.Ollport, E.Daffi, A.Bandura, A.Freyd tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Psixologiya fanida o'quv faoliyati motivatsiyasi muammosi bo'yicha B.G.Ananyev, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, L.I.Petrajiskiy, A.F.Lazurskiy, K.D.Ushinskiy, B.M.Myasishchev, L.S.Vigotskiy, C.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, P.M.Yakobson va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin.

O'zbekistonda Sh.R.Barotov, A.S.Begmatov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, G'.B.Shoumarov, Z.T.Nishonova, V.A.Tokareva, B.R. Qodirov, I.M.Hakimova, N.T.Norqulova E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova va boshqalar motiv va motivatsiya muammolari, xususan voyaga yetmaganlar o'quv faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolar va motivatsiyaning ilmiy asoslarini tadqiq qilingan.

Dissertatsiyaning **«Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi namoyon bo'lishining tadqiq etilishi»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan. Shuningdek, kasb-hunar maktab o'quvchilarining ta'lim motivatsiyasi muammosining dolzarbligi hamda unga ta'sir etuvchi psixologik omillarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Endi, bevosita dastlabki olingan natijalar tahliliga e'tiborimizni qaratamiz. Jumladan, «O'quv motivatsiyasini diagnostika qilish» metodikasiga ko'ra, bir qator ahamiyatli darajadagi natijalar qayd etildi.

**«O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish» metodikasi
bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar
	1-bosqich, n=110	2-bosqich, n=100	t
Kommunikativ motivlar	14,6	17,5	-2,4*
O‘zini olib qochish motivlari	19,3	16,4	-2,8*
Obro‘-e‘tibor motivlari	19,3	20,2	-1,3
Kasbiy motivlar	18,6	20,3	-2,4*
O‘z-o‘zini ijodiy namoyon qilish motivlari	7,5	8,4	-1,5
Bilishga va o‘qishga oid motivlar	22,2	24,6	-2,3*
Ijtimoiy motivlar	19,4	22,7	-2,5*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«O‘quv motivatsiyasini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «kommunikativ motivlar» ($t=-2,4$; $p < 0,05$), «o‘zini olib qochish motivlari» ($t=-2,8$; $p < 0,05$), «kasbiy motivlar» ($t=-2,4$; $p < 0,05$), «bilishga va o‘qishga oid motivlar» ($t=-2,3$; $p < 0,05$) hamda «ijtimoiy motivlar» ($t=-2,5$; $p < 0,05$) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «kommunikativ motivlar» omili bo‘yicha, 2-bosqich o‘quvchilarida yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,4$; $p < 0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ularda o‘zaro muloqot qilish, boshqalar bilan bilim almashish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish istagi yuqori darajada rivojlanganligi kuzatildi. Ushbu motivlar o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida jamoaviy ishlarga va muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari bilan bog‘liq. Kasb-hunar maktablarida kommunikativ motivlar kuchliroq bo‘lganda, o‘quvchilar bir-biriga yordam berish, guruhliy loyihalarda ishtirok etish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishi ma‘lum bo‘ldi. Mazkur motivlar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faolligini oshiradi, chunki ular o‘z bilimlarini muhokama qilish va boshqa o‘quvchilarning fikrlari bilan boyitishni istaydi. Ushbu omil, shuningdek, ta‘lim olish jarayonida ijtimoiy ta‘sirning rolini kuchaytiradi, chunki o‘quvchilar o‘zaro aloqalar orqali yanada samarali bilim oladi. Kommunikativ motivlar, o‘z navbatida, o‘quvchilarning ta‘lim jarayonida o‘zini qulay his qilishiga yordam beradi. Ta‘lim jarayonida ijtimoiy aloqalarning kuchayishi ularning o‘zlashtirish qobiliyatini oshirishi mumkin. Shuningdek, bu motivlar o‘quvchilarning muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni jamiyat bilan moslashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

«O‘zini olib qochish motivlari» omili bo‘yicha 1-bosqich o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,8$; $p < 0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, ularda o‘qish jarayonidan yoki ta‘lim muhitidan qochishga bo‘lgan istakning yuqoriligi, qiyinchiliklar, stress va ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatsizlikka duch kelganida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilarda bunday motivlar rivojlangan bo‘lsa,

ular ko'pincha vaziyatlaridan chetda turishi va ta'lim jarayoniga nisbatan kamroq e'tibor qaratiladi.

O'zini olib qochish motivlari o'quvchilarning o'quv jarayonidan qochish uchun sabab bo'luvchi salbiy holatlar bilan bog'lanadi. Bunday motivlar ko'pincha o'zini ishonchsiz his qilish, muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqish va kuchli bosim tufayli paydo bo'ladi. Ushbu omil, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim muhitidagi stress va bezovtalik darajasini oshirishi mumkin. O'zini olib qochish motivlariga ega bo'lgan o'quvchilar ko'proq motivatsiya va psixologik yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Ushbu motivlarni o'rganish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni yengishda yordam bera olishlari muhim bosqich sanaladi.

«Kasbiy motivlar» omili bo'yicha 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, kasbiy motivlar o'quvchilarning o'z kasbini muvaffaqiyatli egallashi va kelajakda o'z o'rnini topish istagi bilan bog'liq ekanligi isbotlandi. Ushbu motivlar kasb-hunar maktablarida o'quvchilarning ta'lim olishdagi asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, kasbiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish istagini borligini ko'rsatadi. Kasbiy motivlar qanchalik kuchli bo'lsa, o'quvchilar o'z kelajakdagi kasbiga nisbatan yuqori qiziqish bilan ta'lim oladi. Bu motivlar kasb-hunar maktablarida o'quvchilarning ta'lim jarayonida ko'proq e'tiborli va faol bo'lishlariga yordam beradi. Kasbiy motivlar o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga qaratilganligi sababli, ularning motivatsiyasi yanada barqaror bo'ladi. Ushbu motivlar, shuningdek, o'quvchilarning amaliyotlarda va kasbga oid mashg'ulotlarda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kasbiy motivlarni rivojlantirish orqali o'zining maqsadlariga erishishini ta'minlaydi. Ushbu omil o'quvchilarning kasbga oid bilimlarini mustahkamlashga, ularni kelajakdagi katta hayotga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Metodikaning navbatdagi «bilishga va o'qishga oid motivlar» omili bo'yicha 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, bilishga va o'qishga oid motivlar o'quvchilarning bilim olishga va yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ichki qiziqishini ifodalaydi. Ushbu motivlar o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirish va o'qish jarayonida yangi bilimlarga ega bo'lishga bo'lgan istaklarini kuchaytiradi. Bilishga bo'lgan motivlar kuchli bo'lsa, o'quvchilar ko'proq o'rganishga intiladi va o'zlarini rivojlantirish uchun doimo yangi bilimlar izlaydi. Bu motivlar o'quvchilarning mustaqil ravishda o'qish va yangi ma'lumotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bilish va o'qishga oid motivlar, shuningdek, o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishish yo'lida qat'iyatli bo'lishlariga yordam beradi. Ushbu motivlar o'quvchilarning ta'lim jarayonida ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi ularni o'qishda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan resurslarni izlashga undaydi. Bilimga intiluvchan o'quvchilar o'zining o'quv jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga harakat qilishadi va doimiy ravishda o'zlarini rivojlantirib borishadi.

Metodikaning so'nggi «ijtimoiy motivlar» omiliga ko'ra, 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija aniqlandi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, ularda o'zlarini jamiyatda qanday tutishlari, ijtimoiy muhitga moslashishlari va

jamoaviy ishlarda ishtirok etishlariga asoslangan motivlar yuqori darajada ekanligi kuzatildi. Ushbu motivlar o'quvchilarning ta'lim jarayonida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini oshirishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy motivlar kuchli bo'lgan o'quvchilar, odatda, guruh ishlarida faol ishtirok etadi va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni qadrlaydi. Bu motivlar ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishi va jamiyatga moslashishga yordam beradi. Ijtimoiy motivlar ta'lim jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sirlar orqali bilim olishning samaradorligini oshiradi. Ushbu omil o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga va jamoaviy ishlarda samarali ishtirok etishga yordam beradi. O'quvchilarda ijtimoiy motivlar kuchli bo'lsa, ular boshqalar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishga intiladi va ijtimoiy ta'sirni o'zlashtirishni o'rganadi. Bu motivlar ularni jamiyat uchun foydali va kelajakda o'z kasbini egasi bo'lish yo'lida ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaydi.

2-jadval.

«5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar t
	1-bosqich, n=110	2-bosqich, n=100	
Yangilik hissi	7,4	5,4	-2,3*
Tanqidiylik	6,3	8,2	-2,6*
Obyektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati	4,4	4,6	-1,1
Ijodkorlikka yo'nalganlik	5,2	7,4	-2,5*
O'z-o'zini baholash	3,9	5,8	-2,1*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Tadqiqotda qo'llanilgan «5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash» metodikasi bo'yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «yangilik hissi» ($t=-2,3$; $p < 0,05$), «tanqidiylik» ($t=-2,6$; $p < 0,05$), «ijodkorlikka yo'nalganlik» ($t=-2,5$; $p < 0,05$) hamda «o'z-o'zini baholash» ($t=-2,1$; $p < 0,05$) omillari bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «yangilik hissi» omili bo'yicha 1-bosqich o'quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,3$; $p < 0,05$). Mazkur omilga mansub o'quvchilar yangilik yaratishga intilishlari yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Yangilik hissi kuchli bo'lgan o'quvchilar yangi vaziyatlarda o'zini erkin his qiladi va turli masalalarga yangicha yondashishni istaydilar. Ushbu omil ijodiy jarayonda yangi g'oyalarning paydo bo'lishi va ularni samarali tarzda amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Natijalarga ko'ra, yangilik hissi bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi, bu esa o'quvchilar orasida ijodiy jarayonlarda yangi narsalarni kashf qilishga qiziqish darajasi turlicha ekanligini ko'rsatadi. Ushbu omilning past darajada bo'lishi ijodiy jarayonlarni cheklab qo'yishi mumkin. Chunki, yangilikka bo'lgan qiziqish ijodkorlikning asosiy tarkibiy qismi deb hisoblanadi. Yangilik hissini rivojlantirish orqali o'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini yanada kengroq

ko'rsatishga qodir bo'lishlari mumkin. Shuningdek, yangilik hissi yuqori bo'lgan o'quvchilar turli masalalarni innovatsion yo'llar bilan hal qilishga moyildir.

Metodikaning navbatdagi «tanqidiylik» omiliga ko'ra, 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Ma'lum bo'lishicha, bu 2-bosqich o'quvchilarida mavjud g'oyalar va qarashlarni tahlil qilish, ularni tanqidiy baholash va o'z pozitsiyasini asoslash qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu omil o'spirinlarning fikrlash jarayonida tanqidiy yondashuvni rivojlantirishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlovchilar mavjud fikrlarni baholashi, kamchiliklarni aniqlashda va yangi yechimlarni taklif qilishda faol ishtirok etadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tanqidiylik omili bo'yicha ham sezilarli farqlar mavjud, bu esa o'quvchilar orasida tanqidiy yondashuv darajasi turlicha ekanligini anglatadi. Tanqidiy fikrlash o'spirinlarning ijodiy faoliyatida muhim rol o'ynaydi, chunki u mavjud g'oyalarning samaradorligini tahlil qilish va ularni rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu omil rivojlangan o'quvchilar ko'pincha an'anaviy g'oyalarga qarshi chiqib, yangi va samarali yechimlarni taklif qiladi. Tanqidiylik darajasi past bo'lgan o'quvchilar esa mavjud g'oyalarni qabul qilib, ularda kamchiliklarni ko'rish qiyinlashadi.

«Ijodkorlikka yo'nalganlik» omili bo'yicha 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, 2-bosqich o'quvchilarida ijodiy jarayonlarga faol kirishish va yangi g'oyalarni hayotga tadbiiq etishga intilish darajasi yuqori ekanligi dalillandi. Ijodkorga yo'nalganlik kuchli bo'lgan o'quvchilar doimo yangi narsalarni o'rganishga, tajriba qilishga va ijodiy ishlarni amalga oshirishga moyil bo'lishadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu omil bo'yicha sezilarli farqlar kuzatilgan, ya'ni o'spirinlar orasida ijodkorlikka qiziqish darajasi turlicha. Bu omil ijodiy faoliyatni davom ettirish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhimdir. Ijodkorga yo'nalganlikning past darajada bo'lishi o'quvchining ijodiy qobiliyatlarining to'liq ochilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu omilni rivojlantirish o'quvchining ijodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga va o'z ijodiy salohiyatini to'liq ko'rsatishiga yordam beradi.

Keyingi «o'z-o'zini baholash» omilga ko'ra, 2-bosqich o'quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,1$; $p<0,05$). Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, 2-bosqich o'quvchilarida o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini qanchalik real baholashini ifodalaydi. O'z-o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar o'z qobiliyatlariga ishonch bilan qaraydi va o'zini muvaffaqiyatli his qiladi. Ushbu omil o'quvchining o'zini qanchalik to'g'ri baholashiga bog'liq bo'lib, ular o'z qobiliyatlarini real baholab, imkoniyatlariga mos maqsadlarni qo'yadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini baholash omili bo'yicha sezilarli farqlar mavjud, bu esa o'spirinlar o'z qobiliyatlarini turlicha baholashlarini ko'rsatadi. O'z-o'zini baholash darajasi past bo'lgan o'quvchilar o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qaraydi va bu ularning ijodiy faoliyatiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omil o'quvchining muvaffaqiyatga erishishiga va ijodiy qobiliyatlarini to'liq ochishiga yordam beradi. O'z-o'zini baholash yuqori bo'lgan o'quvchilar o'zlarida yangi qobiliyatlarni rivojlantirishga intiladi va qiyinchiliklarga qaramasdan o'z maqsadlariga erishishga harakat qiladi.

«Kasb-hunar maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasi darajasini o‘rganish so‘rovnomasi» bo‘yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «ichki motivatsiya» ($t=-2,6$; $p<0,05$), «tashqi motivatsiya» ($t=-2,4$; $p<0,05$) hamda «amotivatsiya» ($t=-2,3$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlandi.

3-jadval.

«Kasb – hunar maktab o‘quvchilarida ta’lim motivatsiyasi darajasini o‘rganish so‘rovnomasi» bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar
	1-bosqich, n=110	2-bosqich, n=100	t
Ichki motivatsiya	1,8	3,4	-2,6*
Tashqi motivatsiya	2,1	4,2	-2,4*
Amotivatsiya	3,4	1,2	-2,3*

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Tadqiqot ishimizdagi bu so‘rovnomaning dastlabki «ichki motivatsiya» omili bo‘yicha 2-bosqich o‘quvchilarida yuqori natija aniqlandi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ichki motivatsiya o‘quvchilarning ta’lim olishga ichki qiziqishlari va shaxsiy rivojlanish istaklari bilan bog‘liq. Jumladan, 2-bosqich o‘quvchilari uchun ichki motivatsiya ko‘pincha, o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqish va kelajakda yaxshi mutaxassis bo‘lish istagi bilan izohlanadi. Bu o‘quvchilar ta’lim jarayonida o‘z bilimlarini chuqurlashtirish va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga nisbatan o‘z ichki ehtiyojlarini qondirish uchun faol qatnashadi. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan 2-bosqich o‘quvchilari ta’lim olish jarayonida o‘z harakati va qo‘lga kiritgan yutuqlaridan zavq oladil va bilim olishni shaxsiy muvaffaqiyatlariga qaratilgan jarayon deb biladilar. Ushbu toifadagi o‘quvchilar uchun darslarga qatnashish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish ichki ehtiyoj sifatida shakllangan bo‘lib, tashqi mukofotlardan ko‘ra o‘zini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Ular bilim olishni o‘z shaxsiy muvaffaqiyati bilan bog‘laydilar va o‘zini ta’lim jarayonida to‘liq amalga oshirishga intiladi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar, odatda, mustaqil ravishda o‘qish va ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanishga moyil bo‘ladi. Bu esa ularning o‘z bilimlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorlaydi.

«Tashqi motivatsiya» omiliga ko‘ra, 2-bosqich o‘quvchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, 2-bosqich o‘quvchilari uchun tashqi motivatsiya yaxshi baholar olish, diplom olish yoki kelajakda yaxshi ish topish istagi bilan bog‘liq ekanligi dalillandi. Bu o‘quvchilar o‘zlarining ta’limdagi yutuqlarini ko‘proq ijtimoiy maqom yoki tashqi rag‘batlantirish vositalari orqali ko‘radi. Ular uchun ta’lim olish jarayoni maqsadga erishish vositasi bo‘lib, tashqi rag‘batlar ta’lim olishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. Tashqi motivatsiya yuqori bo‘lgan o‘quvchilar, odatda, baho olishga yoki tan olinishga katta ahamiyat beradi va ularning bilim olish faoliyati bu motivatorlarga mos ravishda shakllanadi. Ushbu turdagi motivatsiya o‘quvchilarni ta’lim jarayonida faol bo‘lishi va o‘zlarini ko‘rsatishga undaydi. Chunki, ularning asosiy

maqsadi tashqi muvaffaqiyatga erishishdir. Tashqi motivatsiya ba'zan ta'lim olish jarayonini ichki qiziqishdan ko'ra, tashqi omillar bilan bog'laydi, ammo bu o'quvchilarning ta'limga nisbatan faolligini oshiradi.

Metodikaning so'nggi «amotivatsiya» omili bo'yicha 1-bosqich o'quvchilarida salbiy natijalar kuzatildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Jumladan, amotivatsiya – bu ta'lim jarayoniga bo'lgan motivatsiyaning yo'qligi yoki zaifligi bilan bog'liq holatdir. Bu omil yuqori bo'lgan o'quvchilar ko'pincha ta'lim jarayonida qiziqishning pasayishi, o'z maqsadlarini anglamaslik va o'zini ishonchsiz his qilish holatlariga duch kelganliklari aniqlandi. Bu holat, ayniqsa, 1-bosqich o'quvchilarida yangi muhitga moslashishda qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Buni esa ulardagi hali ta'limning muhimligini to'liq anglab yetmagan bo'lishlari va amaliyotni shaxsiy maqsadlar bilan bog'lashda qiyinchiliklarga duch kelishi bilan izohlanadi.

Natijalardagi turli farqlar o'quvchilarning bosqichlar bo'yicha motivatsiya darajalarida sezilarli o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, 2-bosqich o'quvchilarida ichki va tashqi motivatsiyaning yuqori bo'lishi ularning ta'lim jarayonida barqaror qiziqishga ega ekanligini, 1-bosqich o'quvchilarida esa amotivatsiya darajasining yuqoriligi ularda motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha zarur qo'shimcha chora tadbirlar zarurligini ko'rsatdi.

4-jadval.

«Kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi darajasini o'rganish so'rovnomasi» hamda «5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=210)

Omillar	Ichki motivatsiya	Tashqi motivatsiya	Amotivatsiya
Yangilik hissi	0,42*	0,15	0,16
Tanqidiylik	0,17	0,18	0,12
Obyektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati	0,22	0,21	0,17
Ijodkorlikka yo'nalganlik	0,36*	0,14	0,16
O'z-o'zini baholash	0,18	0,38*	0,36*

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

«Kasb-hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi darajasini o'rganish so'rovnomasi» hamda «5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra «ichki motivatsiya» omili «yangilik hissi» ($r=-0,42$; $p\leq 0,05$) hamda «ijodkorlikka yo'nalganlik» ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy, «tashqi motivatsiya» omili «o'z-o'zini baholash» ($r=-0,38$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy, «amotivatsiya» omili «o'z-o'zini baholash» ($r=-0,36$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy korrelyatsion bog'lanishni hosil qildi.

Dissertatsion tadqiqot ishimizdagi «ichki motivatsiya» va «yangilik hissi» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish qayd etildi ($r=-0,42$; $p\leq 0,05$). Jumladan, ichki motivatsiya – bu o'quvchining bilim olish va yangi ko'nikmalarni o'rganishga bo'lgan ichki istagi va ehtiyojidan kelib chiqadigan qiziqishdir. Bog'lanish natijalariga ko'ra, kasb-hunar maktabi o'quvchilarida motivatsiya

shaxsiy o'sish va o'zini rivojlantirish rivojlangani sayin ularda yangi va o'ziga xos bo'lgan g'oyalar, usullar, bilimlarni izlash, ularga qiziqish hissi yuqori darajada bo'ladi. Ushbu bog'lanishlar o'quvchilar o'zining ichki motivatsiyalari orqali yangilikka intilishga moyilligini ko'rsatadi. Yangiliklarni yaratish o'quvchilar uchun qiziqarli jarayon bo'lib, ular bu orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishdan zavq oladi. Ichki motivatsiya kuchli bo'lgan o'quvchilar yangi g'oyalarni qabul qilish, yangilikni izlashni o'z rivojlanish jarayonining muhim qismi sifatida ko'radi. Natijada yangilikni izlash va ichki motivatsiya bir-birini mustahkamlovchi omillar sifatida faoliyat ko'rsatadi.

«Ichki motivatsiya» va «ijodkorlikka yo'nalganlik» omillari o'rtasidagi ijobiy korrelyatsion bog'lanishlar qayd etildi ($r=-0.36$; $p\leq 0.05$). Jumladan, ichki motivatsiya o'quvchining ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagini kuchaytirishi ma'lum bo'ldi. O'quvchi ijodkorlikka yo'nalganda, yangi g'oyalar yaratish, nostandart fikrlash va yangi yo'llarni izlash jarayonida bo'ladi. Ushbu bog'lanish o'quvchilar ijodiy faoliyatlarda ishtirok etish va ichki qoniqish olish motivlariga tayanishini ko'rsatadi. Ichki motivatsiyaga ega o'quvchilar ijodiy faoliyatlarni bajarishda o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi va o'z-o'zini ifodalash uchun imkoniyatlarni izlaydi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z fikrlash doiralarini kengaytiradi va ijodkorlikka yo'naltirilgan harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Natijada o'quvchilar ichki motivatsiyalari orqali ijodkorlikni kuchaytirib, turli ijodiy faoliyatlarga o'z hissasini qo'shadi. Ijodkorlikka bo'lgan qiziqish ularda o'z bilimlarini yangicha usullar bilan qo'llashga turtki beradi.

«Tashqi motivatsiya» hamda «o'z-o'zini baholash» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish kuzatildi ($r=-0.38$; $p\leq 0.05$). Bu tashqi motivatsiya o'quvchining tashqi rag'batlantiruvchilarga asoslanib, faoliyat olib borishini anglatadi. Bu rag'batlantiruvchilar orasida mukofot, tan olish yoki jamoat tomonidan maqtoovlar muhim rol o'ynaydi. «O'z-o'zini baholash» esa shaxsning o'z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini va o'ziga bo'lgan munosabatlarini qanday qabul qilishini ifodalaydi. Ushbu bog'lanish o'quvchilarning tashqi tomondan rag'batlantirish orqali o'z-o'ziga bo'lgan bahosini oshirishga intilishini ko'rsatadi. Tashqi motivatsiya ularga ijtimoiy maqom yoki natijalari asosida o'zlarini qadrlash imkonini beradi. O'quvchilar ko'pincha tashqi baholashga muvofiq ravishda o'zlarini baholashadi va bu jarayon ularning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchlarini oshiriladi. Shu sababli, tashqi tomondan rag'batlantirishlar ularda o'z imkoniyatlarini yanada ko'proq qadrlashga yordam beradi. Natijada o'z-o'zini baholashning ijobiy o'sishi o'quvchilarning tashqi motivatsiyalarga bog'liq ravishda rivojlanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotdagi korrelyatsion tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki va tashqi motivatsiya omillari o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari, yangilikka qiziqishi hamda o'z-o'zini baholashi bilan bevosita bog'liqdir. Ichki motivatsiya yangilik izlash va ijodkorlikni kuchaytirsa, tashqi motivatsiya o'z-o'zini baholash orqali o'z ta'sirini namoyon qiladi.

«Amotivatsiya» omili hamda «o'z-o'zini baholash» o'rtasidagi salbiy korrelyatsiya ($r=-0.36$; $p\leq 0.05$) shuni ko'rsatadiki, amotivatsiya darajasi yuqori bo'lgan kasb-hunar maktabi o'quvchilarida o'z-o'zini baholash darajasi past bo'lishi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, amotivatsiya — bu o'quvchining ta'lim jarayonida ishtirok etishga motivatsiya yo'qligi, maqsadi, qiziqishi va

rag'batlantirishning yetishmasligidir. Bunday holatlar o'quvchilarning o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Amotivatsiya kuchaygan sari, o'quvchilar o'zlarini yetarli darajada baholashda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning akademik va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash past darajada bo'lgan o'quvchilar, odatda, ta'lim jarayoniga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini yo'qotadilar, bu esa amotivatsiyaning yanada oshishiga olib keladi.

Mazkur o'zaro bog'lanish o'quvchilarning umumiy faoliyatiga, o'zini rivojlantirish va o'zining muvaffaqiyatiga bo'lgan ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Amotivatsiya ularga ta'limdagi qiyinchiliklarni yengish uchun yetarlicha ichki kuch topishga to'sqinlik qiladi, shuningdek, tashqi motivatsiyalar ham ularni rag'batlantirmaydi. Natijada bu holat ularning o'zini o'zi anglashni va qadrlash darajasini pasaytiradi, bu esa o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga intilishini susaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar maktablaridagi o'quvchilarning amotivatsiyasini kamaytirish va o'z-o'zini baholash darajasini oshirish uchun maxsus psixologik dasturlar, motivatsion yondashuvlar va individual qo'llab-quvvatlash usullarini qo'llash zarur. Bu o'quvchilarga o'z maqsadlarini aniqlashda va o'zlariga bo'lgan ishonchni tiklashda yordam beradi, shu bilan birgalikda, ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

5-jadval.

«Kasb – hunar maktab o'quvchilarida ta'lim motivatsiyasi darajasini o'rganish so'rovnomasi» hamda «Emotsional intellektni o'rganish» testi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=210)

Omillar	Ichki motivatsiya	Tashqi motivatsiya	Amotivatsiya
Emotsional bilimdonlik	0,38*	0,10	0,16
O'z emotsiyasini boshqarish	0,35*	0,19	0,12
